

**ABDULLA AVLONIYNING YURTIMIZ
TARIXIDA TUTGAN O'RNI**

Umurboqiyev Javohir Asqar o'g'li
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblanmish Abdulla Avloniy ijodini o'rganish uning ta'lim tizimi asoschisi sifatida olib borgan fidokorona xizmatlari, asarlaridagi yetakchi pedagogik qarashlari va g'oyalarni o'rganish, tadqiq etish nafaqat dars jarayonining qizg'in o'tishini balki ta'lim sifatini oshishiga qo'shgan xizmatlari qolaversa uning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari, pedagogik qarashlari va jamiyatga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Avloniyning shaxsiyati, uning adabiyot va madaniyatga bo'lgan yondashuvi haqida keng fikr va mulohazalar yuritiladi va bayon etiladi.

Kalit so'lar: Ikkinchi muallim, Tarix, Abdulla Avloniy, Turon teatr turuppasi, jadidchilik harakati, tabiya, ta'lim.

**ABDULLA AVLONIY'S PLACE IN THE
HISTORY OF OUR COUNTRY**

Annotation: This article examines the work of Abdulla Avloniy, one of the great figures of Uzbek literature, his selfless services as the founder of the education system, his leading pedagogical views and ideas in his works, his contribution to the intensive course of the lesson process, as well as his contribution to improving the quality of education, as well as his life, scientific and creative activities, his works, pedagogical views and contribution to society. Also, extensive thoughts and comments on Avloniy's personality, his approach to literature and culture are presented and expressed.

Keywords: Second teacher, History, Abdulla Avloni, Turan theater tradition, Jadid movement, nature, education.

**МЕСТО АБДУЛЛЫ АВЛОНИ В ИСТОРИИ
НАШЕЙ СТРАНЫ**

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение творчества Абдуллы Авлони, одного из великих деятелей узбекской литературы, его бескорыстных заслуг как основоположника системы образования, ведущих педагогических взглядов и идей в его произведениях, а также изучение и исследование Они являются не только увлекательной частью учебного процесса. Помимо вклада в повышение качества образования, будут рассмотрены его жизнь, научная и творческая деятельность, созданные им произведения, педагогические взгляды и вклад в развитие общества.

Кроме того, представлены и объяснены обширные мысли и наблюдения о личности Авлони и его подходе к литературе и культуре.

Ключевые слова: *Второй учитель, история, Абдулла Авлони, традиция театра Туран, движение джадидов, природа, образование.*

KIRISH

Buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, ustoz, jurnalist va jamoat arbobi, o‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy (1878 - 1934)dir. U milliy pedagogika, dramaturgiya, milliy teatr, jurnalistika, bolalar adabiyotini yangi bosqichga ko‘targan. Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to‘quvchi oilasida tug‘ilgan. Bobosi Mirne‘mat boy asli qo‘qonlik o‘qchi-yoychilardan edi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik -to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Piyonbozorda bo‘z va chit bilan savdo qilardi. Miravlon akaning otasi kambag‘al odam bo‘lgani uchun Avloniy bolaligidanoq mehnat qilib, ro‘zg‘or tebratishni boshlagan. Abdulla Avloniyning faoliyatida marifat tuyg‘usi, uning ilmiy, adabiy, pedagogik va jamiyatshunoslik faoliyatining markaziy o‘rnini egallagan. Avloniy o‘z davrida faqat ilmiy va madaniy jihatdan yuksak shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilgan emas, balki marifatni jamiyatni yaxshilashning eng samarali vositasi sifatida ko‘rgan. Uning faoliyatida marifatning alohida o‘rni bo‘lib, u bu g‘oyani nafaqat ta‘lim tizimi orqali, balki adabiy asarlari orqali ham ilgari surgan. Avloniy marifat tuyg‘usini milliy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar va ilm-fan orqali rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb bilgan.

Avloniyning g‘oyalari ko‘ra, marifat faqat ilm olish orqali emas, balki xalqni ma‘rifatli qilish, ularning axloqiy va ma‘naviy kamolotini ta‘minlash orqali rivojlanadi. Uning bu g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Marifat va milliy qadriyatlar. Avloniy marifatni faqat ilm olish bilan bog‘lamasdan, uni milliy qadriyatlar bilan ham uyg‘unlashtirgan. U o‘zbek xalqining tarixini, madaniyatini, adabiyotini va an‘alarini hurmat qilishni marifatning ajralmas qismi deb bilgan. Avloniy milliy g‘oyalarni rivojlantirishda ta‘lim va ma‘rifatni asosiy vosita sifatida ko‘rgan. U marifatni millatni yuksaltirishning asosiy vositasi sifatida ko‘rsatgan. Abdulla Avloniyning she‘rlari 15 yoshidan matbuotda chiqqan boshlagan, va bu hozirgi yosh avlodni o‘qishga izlanishga chorlaydi chunki 13 yoshda ham o‘qib, ham ishlash aynan bugungi yoshlarni serg‘ayrat bo‘lishga undovchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Avloniy 1904-yilda jadidchilarning yetakchilaridan biri bo‘lib, 1909-yilda “Jamiyati hayratiya” tashkilotini tuzdi. 1905—1917-yillarda u o‘zining publitsistik maqolalari bilan matbuotda faol qatnashib, “o‘zgarishlar urug‘ini” sochdi. 1907 yilda Avloniy “Shuhrat” gazetasini ochadi. O‘qishdan so‘ng u pedagogikani o‘rganadi hamda yangi maktab tizimini yaratadi shundan so‘ng Sharq va G‘arb tillarini o‘qitishni taklif qildi.

METADALOGIYA

Bugungi kunda Avloniyning pedagogik g‘oyalari, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va jamiyatni yuksaltirish borasida qo‘llanilmoqda. Avloniy XX asrning mashhur allomalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyati o‘z davrida katta ahamiyat kasb etgan.

Maqolada uning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari, pedagogik qarashlari va jamiyatga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Avloniyning shaxsiyati, uning adabiyot va madaniyatga bo'lgan yondashuvi tahlil qilinadi. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi O'zbekistonda hamda butun Turkistonda katta ahamiyatga ega bo'lgan. U o'zining ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyati bilan nafaqat o'z zamonida, balki hozirgi kunda ham katta iz qoldirgan. Avloniy o'zining ijodiy faoliyatida o'zbek tilini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan va xalqni ma'rifatli, ilmiy qilishni o'zining asosiy maqsadi deb bilgan. Shu bilan birga, uning ta'lim tizimi va pedagogik g'oyalari o'z zamonining eng ilg'or fikrlarini o'zida mujassam etgan. Avloniyning hayoti va ijodi haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, uning faoliyatining turli jihatlarini yangi va keng qamrovli nuqtai nazardan o'rganish juda muhimdir. Avloniy nafaqat yozuvchi, balki ilm-fan sohasida ham katta ishlarga qo'l urgan. Uning ilmiy ishlari asosan tilshunoslik, adabiyot va pedagogika sohalarini qamrab oladi. Avloniyning "Milliy qadriyatlarimiz" kabi asarlari o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini, tilini, an'analarini hurmat qilishga chaqiradi. U o'z asarlarida yosh avlodni ilm olishga, ma'rifatga intilish va jamiyatni yuksaltirishga undagan.

Avloniyning faoliyatida marifat tuyg'usi jamiyatni yaxshilash, yoshlarni tarbiyalash va xalqni ilm-fan, axloq va ma'rifatga intilish yo'lga boshlashning asosiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. U marifatni faqat ilm olish emas, balki insonning ma'naviy kamolotga erishishi, jamiyatga foydali bo'lishi, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va ularni saqlash deb bilgan. Avloniyning marifatga bo'lgan qarashlari Avloniy marifatni faqat bilim olish bilan bog'lamagan. U marifatni yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, axloqiy, ilmiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish deb bilgan. U o'z asarlarida, xususan "Milliy qadriyatlarimiz" va "O'zbek tilining grammatikasi" kabi asarlarida, jamiyatni yuksaltirish uchun yoshlarni ma'rifatli qilish zarurligini ta'kidlagan. Avloniy marifatni xalqning o'zligini anglash, uni himoya qilish va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rgan. Avloniyning pedagogik g'oyalari va marifat. Avloniy pedagogik faoliyatida marifatni yoshlarni tarbiyalashning asosiy maqsadi deb belgilagan. Uning pedagogik qarashlari nafaqat ilm olishga, balki axloqiy va ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Avloniy Turkistondagi maktablarda geografiya, kimyo, astronomiya va fizika fanlarini o'qitishni birinchi bo'lib ta'lim tizimiga kiritdi, o'quvchilar bir sinfdan ikkinchisiga o'tganda imtihonlar kiritdi, shu bilan Turkistonda ta'limni yangi bosqichga ko'tardi; Avloniy 1895-yilda "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abulfayz", "Indamas" taxalluslari ostida ijod qilib, ocherk, felyeton, dramatik asarlar yaratdi. Xalqini bilim olishga, ma'rifat olishga da'vat etdi. 1909 yilda jadidchilik uslubida maktab ochadi. Avloniy Behbudiy bilan birgalikda "Turon" truppasini tuzib, "Padarkush" pyesasini sahnalashtiradi. 1917-yilda inqilobdan so'ng "Yashasin xalq jumhuriyati!" shiori ostida "Turon" gazetasini chiqaradi. Avloniy shoir sifatida ko'plab she'rlar yozgan. Uning mashhur "Uz mamlakatimizda", "Maktab" she'rlari xalqni ma'rifatga chorlaydi. Ayniqsa, uning "Adabiyot" kitobi mashhur.

Abdulla Avloniy 19-asr oxirida o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan jadidchilik harakatining yetakchilaridan, shuningdek, o‘zbek bolalari uchun yangi usul bo‘yicha maktablar barpo etish asoschilaridan biri edi. Bu maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozgan. Afg‘oniston xalq ta’limi vaziri bo‘lib ishlagan, Sovet Ittifoqining Afg‘onistondagi elchisi-konsuli bo‘lgan. O‘rta Osiyo universitetida dars bergan, kitoblar yozgan. Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda Toshkentda vafot etgan va Botkin qabristoniga dafn etilgan. Adibning O‘zbek tilidagi bolalar uchun darsliklar: “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Tarix”, “Turkiy guliston yohud axloq”. Piessalari “Tui”, “Kongress”, “Layli va Majnun”, “Ikki muhabbat”, “Advokatlik osonmi?”, “Uliklar” “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va siz”, “Buron”, “Portugaliya” “inkilobi, “Tulki ila xag” va “Mardikorlar ashulasi”, “Vatan”, “Maktab”, “Bog‘cha”, “Yolkov shogird tilidan”, “Tog‘lardan bir manzara”, “Millatga hitob”, “Ishchilardan tortuk”, “Ko‘klam keldi”, “Tovush” nomli sherlari bor. Bundan tashqari “Maqsad va maslak”, “Xolimizga doir” nomli maqolalar va “Hasad balosi” nomli hikoyalar muallifi hamdir.

O‘zbek pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlari harakati, ularning boy pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda shubhasiz, Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot”, “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Uchinchi muallim”, “Hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Maktab jug‘rofiyasi” kabi darslik-lari; “Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz” kabi dramalari Turkiston o‘lkasi xalqlari o‘rtasida ma’lum va mashhur bo‘lgan. Avloniyning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan darsliklarining ba’zilari bir necha marta nashr qilingan bo‘lsa, ba’zilari qo‘lyozma holicha qolib ketgan. Abdulla Avloniy darsliklaridagi badiiy matnlar talabalarga ta’lim berish bilan birga tarbiya, asosan, axloqiy tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Axloqqa Avloniy quyidagicha ta’rif beradi: “Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur». O‘tmish tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi asrlar mobaynida o‘z mustaqilligiga erishish uchun kurashib keldi. Bunday harakatlarga vatanparvar ulug‘ ajdodlarimiz rahbarlik qilishdi. Millati, o‘z xalqi erkinligi yo‘lida aziz jonlaridan kechdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, xalq ozodlik kurashlari demokratik tus oldi. Rossiyada 1905, 1907 va 1917 yillarda ro‘y bergan voqealardan keyin demokratik harakat boshiga jadidlar (arabcha jadid so‘zi – yangi ma’nosiga anglatadi) chiqdi. Afsuski, Rossiyada bo‘lgan 1917 yil oktabr to‘ntarishdan kutilgan natijaga erishilmadi. O‘zbek xalqi sovet imperiyasi asoratiga tushdi. Milliy ozodlik harakati boshida turgan ziyolilar qatag‘on etildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning namoyondalari nomiga yopishtirilgan tavqi la’nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklanib ularga xurmat-ehtirom munosabati bilan Yunus-obod tumanida “Xotira majmui” bunyod etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy madaniyatining atoqli namoyandasi A.Avloniy biz uchun ulkan bir maktab yaratib ketgan. Hamda yoshlarni bilim olishi uchun ta’lim

o'chogiga asos solgan. Yoshlarni yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin. Farzand tarbiyasi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Abdulla Avloniyning biz avlodlariga qoldirib ketgan bitmas tuganmas hikmatli so'zlariyu pedagogika sohasi bo'yicha judaham ko'p ibratli mehnatlari mavjud. Avloniy ijodini qancha o'rganmaylik undan o'rganishimiz kerak bo'lgan judaham ko'p bilimlar mavjud. Aynan pedagogika sohasi rivojlanishiyu ta'limni rivojiga hissa qo'shgan ushbu adib hali hamon biz ajdodlarining qalbida mangu yashaydi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etdi va yosh pedagog-o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirdi. Shoirning hayoti bugungi kun yoshlari uchun tom manodagi dasturil amal bo'lib shaxsiy na'muna sifatida xizmat qiladi deb aytsak adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Avloniy. Toshkent tongi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T-1979
2. M. Saidova. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. Scientific progress. Volume 3, Issue 4. 2022
3. A. Avloniy. (1927). *O'zbek tilining grammatikasi*. Toshkent: O'zbekiston.
4. I. Karimov. (1999). *Abdulla Avloniyning ilmiy va pedagogik merosi*. Toshkent: Fan.
5. F. Safarov. (2010). *Abdulla Avloniyning adabiy g'oyalari*. Toshkent: Yangi avlod.
6. S. Shamsutdinov. (2015). *Abdulla Avloniyning jamiyatga qo'shgan hissasi*. Toshkent: Sharq.
7. R. Tursunov. (2005). *Abdulla Avloniyning pedagogik g'oyalari va ularning amaliyoti*. Toshkent: O'qituvchi.
8. <https://uz.m.wikipedia.org>
9. <https://elib.buxdupi.uz/books/Abdulla%20Avloniy.pdf>